

## NEMIS VA QORAQALPOQ TILLARINI QIYOSIY O'RGANISHNING AHAMIYOTI

Abishova Gulxan Matjanovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Nemis tili va adabiyoti kafedrasida stajor o'qituvchisi

Tillarni qiyosiy tipologik tarzda o'rganishning ahamiyati naqadar yuqori bo'lishiga qaramastan, bu borada qilingan ishlar kam. Har xil oilaga mansub tillarni, shu jumladan nemis va qoraqalpoq tillarini qiyosiy o'rganishning nazariy ahamiyati: qiyoslanayotgan tillar tizimini chuqur anglab etish, qiyoslanayotgan tillarga oid bilimlarning ortishi hisoblanib, gipotetik universiyalarning to'g'ri ekanligini isbotlashdan iboratdir" [3: 34].

Nemis va qoraqalpoq tillari orasida aydarlikta mushtaraklik bo'lmasa ham ularni qiyosiy o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Akademik V. V. Vinogradov tillarni qiyosiy o'rganishning ahamiyatli ekanligini alohida ta'kidlab: "Qardosh, bir-biriga yaqin tillarni qiyosiy-tarixiy tarzda o'rganish bilan birga, turli sistemadagi tillarni qiyosiy yoki solishtirmali turda o'rganishga bo'ladi hamda ularni shu tarzda o'rganish kerak" – degan edi [1: 81]. Bo'lsa tillaarning grammatik qo'rilishida asosiy o'rinlardan birini egallaydigan ot kategoriyalarifa ham tegishlidir.

Tilshunos olim Y. Erbenning ta'kidlashicha, nemis tili leksikasining 50-60 foizini ot turkumiga mansub bo'lgan so'zlar tashkil qilgan ekan [2: 53]. Bundan tashqari, otlar soni ortib boradi. Ularni jamlashtirib har yili «Wörter des Jahres» (yil so'zi) qo'llanmasi chop etiladi va alohida o'rganiladi. Ot so'zlar to'g'risidagi germanist olimlarning fikrini qoraqalpoq va boshqa tillarga ham ta'liqli desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Ona tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik bichimi davomli ravishda uzoq vaqt qaytarilaverib, ongda, xotirada mustahkam o'rin olgan bo'lib, odatiy lingvistik modelga aylanadi. Ushbu bichim onga singishib ketgach, so'zlovchini shu bichimda gapirishga sababchi bo'ladi. So'zlovchi horijiy tilda ona tili bo'yicha so'zlar tanglaydi va gap tuzadi. O'rganilayotgan til bilan ona tili orasidagi o'xshashlik, bir xillik til o'rganishni engillashtiradi. Shu bois bu erda ijobiy interferensiya to'g'risida gap ketadi.

O'qituvchi ona tilidagi til xodisalarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy tilga ko'chiradi. Misol uchun, bosh kelishikning gapda ega, predikativ bo'lib kelishi yoki dativ va jo'nalish kelishiklaridagi o'zaro ma'no o'xshashliklar helfen - jârdem etiw, jârdemlesiw, geben – beriw kimgе?, neni?, sagen – aytiw – kimgе? neni?, shuningdek, akkuzativ bilan tushum kelishiklari orasidagi mutanosiblik lesen – oqiw (neni?) sehen - kóriw (neni?), nehmen, bekommen – aliw (neni ?), kaufen – satip aliw (neni?) va boshqalar hech qanday qiyinchilik to'g'dirmaydi. Ularni nutq mashqlar, dialog formasidagi iboralar orqali o'zlashtirib olishga erishsa bo'ladi.

Lekin xamisha ham shu xilda bo'lavermaydi, masalan bir ma'no anglatadigan so'zlar turli shakllarda qo'llaniladi: kútiw (tushum kel.) – warten + Akk, qutliqlaw kimdi? ne menen?

gratulieren Dat + zu, qızıǵıw (jo'nalish kel) - sich intereesiern für + Akk, jolıǵ'ıo' (jo'nalish kel.) – sich wenden an + Akk u.a. Shuningdek, bosh kelishikning predlogsiz qo'llanishi, bosh kelishigidagi so'zlarning ko'makchilar bilan ishlatilishi, asosan, nemis tilida bo'lmasdan qoraqalpoq tilida mavjud bo'lgan o'rin-payt va chiqish kelishiklarining xilma-xil bo'lib nemis tiliga o'girilishi o'rganuvchilar uchun katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Bunda salbiy interferensiya yuzaga kelib, o'quvchilar tamonidan tipik xatolarga yo'l qo'yilishiga olib keladi. Ular ona tilidan xorijiy tilga tarjima qilganlarida, shuningdek, og'zaki va yozma nutqlarida predloglarni tushurib qoldiradilar, o'larni o'rinsiz olmashtirib qo'llanadi, so'zlarni noto'g'ri kelishiklarda ishlatadi, bog'lama fe'l bo'lgan sein ni qoldirib ketadi va boshqalar. Nemis va qoraqalpoq tillari orasidagi har bir tilning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadigan farqlanishlar ular orasida interferensiya paydo bo'lishiga olib keladi. Interferensiya jarayoni tillararo aloqa va bilingvizm bilan chambarchas bog'langan.

Interferensiya so'zi lotin tilidagi «toshuvchi, o'tkazuvchi» so'zlaridan olingan. Interferensiya tilshunoslikda ikkitalik sharoitlarida til sistemalarining o'z-aro ta'siri natijasining xosilasidir. Interferensiya ona tili ta'sirida ikkinchi tilning norma va sistemasidan chekinishlarda ifodolanadi.

Shuni qayd qilish kerakki, tillararo interferensiya til ichki interferensiyasiga qaraganda ancha taraqqiy qilgan va har qadamda bo'ladi. U orqali kelib chiqadigan tipik xatolar ham birinchisiga qaraganda xilma-xil va turoqli sanaladi.

Birinchi ya'ni ikki til interferensiya xususiyatlarini xisobga olgan holda o'qituvchi ish yuritsa, osonlik bilan xatolarni yo'qotish, o'larning oldini olish mumkin. Lozim deb hisoblangan taqdirda, tilning ichki xususiyatlarini bir-biri bilan taqqoslab, o'larning o'zaro farqini tushuntirish, bir tilga oyd bo'lgan mashqlarni bajarish, matn, konteksttan o'sha til hodisalarin tanib olish (fahmlash, aniqlash) maqsadida algoritm mashqlar ishlatish, so'zlarning ma'nolari bo'yicha savol berish, o'larga javob topish kabilar o'z natijasini beradi. Masalan, matndan ataw kelishikda (genitiv, akkuzativ, dativ) turgan otlarni topib ostiga chizing, matndagi otlarning kelishiklarini aniqlang va boshqalar.

Tillararo interferensiyasi natijasida kelib chiqadigan xatolarning oldini olish, ularni bartaraf qilish o'qituvchida bilim va mahorat talab qiladi. Bu erda o'qituvchi o'z ishini ongli qiyosiy metod asosida tashkil qilishi maqsadga muvofiq keladi. Eng avvalo o'qituvchi ikki til orasidagi o'xshashliklarni, undan keyin esa farqlarini o'quvchilarga tushuntirishi kerak bo'ladi. Yuqorida bayon qilganimizdek, ishni ma'no jihatdan o'z-aro mos keladigan kelishiklardan boshlash, so'ngra esa qolganlariga o'tish, til materialini o'rgatishda ishdagi izchilikka amal qilish bilan birga o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ona tili va xorijiy tillarni bilish darajalarini hisobga olish, shunga ko'ra u'umiy pedagogik+didaktik talablarga javob beradigan mashqlar sistemasi bo'yicha ish yuritish, (ya'ni) osondan qiyinlichilikkacha, soddodan murokkabkacha degan umumiy didaktik prinsiplarga rioya qilish, shu prinsipga muvofiq mashqlar sekin asta qiyinlashib borishi, 2) nemis tili sistemasini va uning o'quvchilar

ona tili sistemasiga munosobatini hisobga olish, 3) mazkur yoshdagi o'quvchilarning tafakkur xususiyatlarini hisobga olish, 4) boshlanishida ongli bo'lib, keyinchalik avtomatlashib boradigan ko'nikmalari shakllanish jarayoni hisobga olish va boshqalar.

Bulardan tashqari, milliy maktab o'quvchilariga qiyinchilik to'g'ri radigan yana bittasi otlarning nemis tilida birqancha turlanishning mavjudligi, ona tilida bo'lsa aksi. Barcha otlar birlik va ko'plik sonda birdek turlanishga ega bo'lib, bir xil kelishik affikslarini qabul qiladi. Ona tilidagi turlanish shakllari ongiga sinib ketgan qoraqalpoq o'quvchilari barcha otlarni birdek turlashga harakat qilib, qatoga yo'l qo'yadi.

Shuningdek, o'quvchilar eng avvalo otlarning ko'chli turlanishi bo'yicha o'zgarishga duch keladi. Bu degani otlar genitivda -(e)s qo'shimchasini oladi artikllar ham shunga mos holda o'zgarishga uchraydi. Endi o'zlashtirgan mahali turlanishning ikkinchi turiga, ya'ni kuchsiz turlanishga, undan keyin esa uchinchisiga to'qnash keladi. Natijada otlarni qo'llanishda interferensiya paydo bo'ladi, o'quvchilar yangi o'quv materialini oldin o'zlashtirgan til hodisalariga xos ravishda qo'llanadi, ya'ni barcha otlarni kuchli turlanish qolibi bo'yicha ishlataveradi.

Til ichki interferensiyasining yana bir ko'rinishi kelishiklarning omonim holatida bo'lishi bilan ifodolanadi. Kuchli turlanadigan sredniy roddagi otlarning bosh kelishik va akkuzativ kelishiklarida (N.Akk. das Buch, das Mädchen, das Haus, das Heft, das Zimmer) jenskiy turlanish bo'yicha turlanadigan otlarning bosh kelishik va akkuzativ (Nom. Akk. Die Mutter, die Frau, die Tür, die Kreide) hamda genitiv va dativ kelishiklarida (Gen. Dat. Der Mutter, der Katze, die Tür, der Tafel, der Wand, der Kreide, der Lampe), shuningdek, ko'plikda ataw kelishik va akkuzativ kelishiklarida (Nom. Akk, die Bücher, die Wände, die Menschen, die Helden) omonim bo'lib kelishi ularning o'quvchilar tomonidan fahmlash, farqlash, tanishlarida qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ularni chalkashtirib yuboradi. Bu esa ichki interferensiyaning xosilasi bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, ikki tildagi kelishiklarga qo'yiladigan savollarda o'xshashliklar ham, shuningdek noo'xshashliklar ham bor. O'xshash tomonlari shuki, savollar ma'no jihatidan bir-biriga mos. Farqlanishlar esa o'larning shakllarida: Nemis tilida savol so'zlari faqat birlik sonda kelsa, qoraqalpoq tilidagi ikkala sondagi so'roq so'zlar bittadan iborat bo'lib, jonli narsalarga ham, jonsiz narsalarni anglatuvchi so'zlarga ham berilaveradi. Vaholanki qoraqalpoq tilida unday emas. Qoraqalpoq tilida otlar egalik affikslari bilan birgalikda turlanaveradi, savol ham shunga mos bo'ladi. Nemis tilida bunday holat mavjud emas. Bu esa nemis tilida egalik olmoshlarining taraqqiy qilinganligi, qoraqalpoq tilida bo'lsa egalik kategoriyasining mavjudligi bilan isbotlanadi.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy tipologiya bir til sistemasining ikkinchi til sistemasiga ta'sir ko'rsatish darajasini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Shularni hisobga olgan holda, interferensiya va uning natijasida kelib chiqadigan qiyinchiliklar, yo'l qo'yiladigan tipik

xatolar, ularni bartaraf qilish bo'yicha ham o'z mulohazalarimizni bayon etdik. Chunki, kelishiklarning predikativlik funktsiyasi ikkala tilga ham xos xususiyatdir.

### **Poydalanilgan adabiyotlar**

1. Виноградов В. В. Русский язык (грамматическое учение о слове). – М.: Русский язык, 2001. 720 с.
2. Ербен Ж. Abriß der deutschen Grammatik. – Berlin: Akademie Verlag, 1963. – 226 с.
3. Курбанбаев А. Сопоставительная грамматика немецкого и каракалпакского языков (Морфология). – Нукус: Каракалпакстан, 1989. 150 с.